

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:  
BD-60230100 – 1.11.  
“\_\_\_” 2024-yil



**“TILSHUNOSLIK NAZARIYASI”**

**FANINING**  
**O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Fan/modul kodi TN1,809	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 3	
Fan/modul turi majburiy	Ta'lif tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 3	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	Turkiy tillarning qiyoziy-tarixiy	50	40	90

<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydag'i "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil qilish to'g'risida"gi Farmoni mazmunidan kelib chiqqan holda tilshunoslik sohasining predmeti, maqsadini yoritish, fan doirasida o'r ganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalarda tilning grammatik strukturasi, til va jamiyat, til va tafakkur munosabatlari, til birlklari, nutq birlklari, til birlklari o'tasidagi munosabatlar, til masalalarini tavsiflashda ichki va tashqi integratsiyadan foydalanish, shuningdek, tilshunoslik metodlariga oid bilim va ko'nikmalar hosil qilish, tilshunoslik tarixining eng muhim bosqichlari borasida tasavvur hosil qilish, tilshunoslikning tarixiy taraqqiyoti, tilshunoslik maktablari, lingvistik ta'lilotlar haqida ma'lumot berish muhim vazifalardan biridir.</p> <p>Fanni o'qitishning maqsadi tilshunoslik sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o'r ganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini ichki va tashqi integratsiya asosida tahlil qilish, tilning ijtimoiy tabiatni, shakllanish jarayoni, taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til birlklari, nutq birlklari, til birlklari o'tasidagi munosabatlar, til sathlari, dunyo tillari tavsif va tasnifi, tilshunoslik maktablari, lingvistik tahlil metodlari, lisoniy universaliyalar va til strukturasi haqida ma'lumot berishdan iborat.</p> <p>Fanni o'qitishda yuqorida ni Farmonda ta'kidlanganidek, o'zbek tili, uning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lin texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talabalariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash; "Tilshunoslik nazariyasi" fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash; talabalarda tilshunoslik nazariyasi asoslarini bo'yicha asosiy bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, tilning ijtimoiy tabiatni, ijtimoiy vazifalari, tub mohiyatini anglash, tilshunoslikning nazariy masalalariga ilmiy hamda integrativ yondashuvni shakllantirish, tilshunoslik fanining tarixiy, tilshunoslik maktablari va yo'naliishlari, tilshunoslik metodlari, lisoniy universaliyalar, lingvistik ta'lilotlar va til strukturasi</p>
--

haqida bilim berish vazifalari nazarda tutiladi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) I semestr**

III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu.** "Tilshunoslik nazariyasi" fanining maqsadi, vazifalart. Tilning ijtimoiy tabiatini.

Tilshunoslik fanining tushunchaviy-terminologik mazmuni, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyasi. Tilning jamiyatdagi ko'rinishlari.

**2-mavzu.** Til va tafakkur munosabati. Til birliklari va mantiqi tushunchalarning o'zaro munosabati. Tilshunoslik va mantiq. Nutqiylar, og'zaki va yozma nutq. Tilshunoslik va psixolingvistika, neyrolingvistika.

**3-mavzu.** Yozuv tarixi va turlari

Yozuv - madanty taraqqiyot mahsuli. Yozivning shakllanishi, rivojlanishi. Yozuv va savodxonlik muammolari. Yozma nutqni takomillashtirishning psixolingvistik asoslari.

**4-mavzu.** Til birliklari o'rtasidagi munosabatlar.

Lisoniy paradigma. Til birliklari o'rtasidagi paradigmatic, iyearxik assotsiativ munosabatlar.

**5-mavzu.** Til – ramzlar tizimi. Tilning semiotik tabiatini. Tilshunoslik va semiotika.

**6-mavzu.** Tilning fonetik-fonologik, lug'at sathi. Fonetika turlari va aspektlari. Fonema belgilari va nazariyalari. Diaxron va sinxron leksikologiya. Leksikologyaning semasiologiya, onomasiofiga, etimologiya, frazeologiya, so'z yasalishi kabi bo'limlar bilan aloqasi.

**7-mavzu.** Tilning grammatik sathi. Grammatik ma'no, grammatic shakl va grammatic kategoriya. Transformatsiya. Tilshunoslik va psixolingvistik.

**8-mavzu.** Dunyo tillari tavsifi.

Tillarning genealogik va tipologik tasnifi. Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar. Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanishi, til oilalari. Til guruhlari. Qo'shimchali va qo'shimchasisiz tillar. Agglutinativ, flektiv tillar.

**9-mavzu.** Tilshunoslikda qo'llanadigan integrativ metodlar.

Fizika, ximiya, matematika fanlariga oid metodlar.

**10-mavzu.** Tilshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti. Tilshunoslik maktablari. Lingvistik ta'limatlar.

**I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: VII semester.**

**1-mavzu.** Tilshunoslik nazariyasi kursi maqsad va vazifalari. Tilshunoslik fanining vujudga kelish tarixi. Tilshunoslik maktablari. Kursning maqsad va vazifalari, fanning vujudga kelish tarixi, tilshunoslik maktablari o'rganiladi

**2-mavzu.** Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi yunon tilshunosligi. Qadimgi hind va qadimgi yunon tilshunosligi haqidagi bilimlar o'zlashtiriladi.

**3-mavzu.** Qadimgi Rim tilshunosligi. Qadimgi Xitoy tilshunosligi.

Qadimgi Rim va Qadimgi Xitoy tilshunosligining vujudga kelishi, tarixiy taraqqiyoti haqida ma'lumot beriladi.

**4-mavzu.** O'rtalikning shakllanishi. Qiyoziy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi. "Devonu lug'otit turk" ning tillar tasnifi, qiyoziy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni. O'rtalikning qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi, "Devonu lug'otit turk"ning qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni masalasi tahlil qilinadi.

**5-mavzu.** Qiyoziy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi. Chog'ishtirma tilshunoslik. Lingvistik tipologiya. Qiyoziy-tarixiy tilshunoslik chog'ishtirma tilshunoslik hamda lingvistik tipologiyaga oid bilimlar o'rganiladi.

**6-mavzu.** O'rtalikning chog'ishtirma tilshunoslikka asos solishi. O'rtalikning chog'ishtirma tilshunoslikning yuzaga kelishidagi xizmatlari tahlili.

**7-mavzu.** Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi. XIX va XX asr tilshunosligi. Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi va XIX va XX asr tilshunosligiga xos xususiyatlar tahlili.

**8-mavzu.** Tilshunoslik maktabları. Strukturalizm maktabları. Struktur tilshunoslik. Struktur tilshunoslik asoschilarini va namoyandalari. Tilshunoslik maktablarining vujudga kelishi, asoschilarini va namoyondalarini.

**9-mavzu.** XXI asr dunyo tilshunosligi. Sotsiolingvistika. Psixolingvistika. Tilshunoslikda yangi sohalarning yuzaga kelishi: sotsiolingvistika, psixolingvistika.

**10-mavzu.** XXI asr dunyo tilshunosligi. Neyrolingvistika. Pragmatik tilshunoslik, neyrolingvistika, pragmatik tilshunoslik.

## **II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

### **I semester.**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tilning ijtimoiy, biologik, fiziologik tabiatini. Tilning ijtimoiy funksiyalari.
2. Til birliklari va mantiq birliklari. Leksemaning til birligi sifatidagi mohiyati.
3. Nutq-murakkab mexanizm sifatida.
4. Yozuvning tarixiy taraqqiyoti. Tilning belgi sifatidagi tavsifi.
5. Til birliklari o'rtasidagi munosabatlarni tahlili.

## **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

### **VII semestr.**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Til va jamiyat munosabati. Adabiy til va shevalar. Tillarning chatishuvini masalasi. Tilning muloqot funksiyasi.
2. Til sathlari. Tilning leksik-semantik birliklarining alohida tizim

- sifatida o'zaro mutanosibligi.
3. Panini grammaticasida hind tili sathlarining aks etishi. Qadimgi Rim tilshunosligi ta'limoti.
  4. Komparativistikaning shakllanishi. O'rta asrlar tilshunosligi.
  5. F.de Sossyurning sotsiologik va struktur tilshunoslik shakllanishidagi o'rni. V.Gumbolt va umumiy tilshunoslik.
  6. Praga strukturalizmi, Kopengagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi
  7. O'rta Osiyoda tilshunoslikning shakllanishi, Mahmud Koshg'ariy qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi sifatida.
  8. Tilshunoslik va aniq fanlar munosabati. Tilshunoslik va matematika. Til qurilishi va tizimi. Lisoniy paradigmalar.
  9. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va dolzarb muammolari. Sotsiolingvistika. Psixolingvistika. Pragmatika. Lingvokulturalogiya.
  10. Tilshunoslik metodlari va ulardan foydalanish.

#### **IV. Seminar mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

- Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.
1. Tilning axborotni to'plash va uzatish funksiyasi.
  2. So'z, tushuncha, "Konsept" tavsiysi.
  3. Nutq-murakkab mexanizm sifatida.
  4. Yozuv tizimlari tasnifi.
  5. Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati.
  6. Tilning fonologik, so'z yasalish, morfologik tipologiyasi.
  7. Tillarning areal tasnifi.
  8. Lingvistik tipologiya. Tillar o'rtasidagi moslik.
  9. Lingvistik tahlil metodlari.
  10. Psixolingvistik metodlarning nutqni tavsiflashdagi o'rni.

#### **IV. Seminar mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

##### **VII semester.**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tilshunoslik tarixining asosiy bosqichlari. Tilshunoslik maktablari ta'limotining asosiy mohiyati.
2. Tilning sinxron aspektida o'rganilishi. Til strukturasi.
3. Lisoniy tadqiqotlarga xos paradigmalar. Til tizimi. Paradigmatika va sintagmatika.
4. Tilshunoslikning taraqqiyot bosqichlari. Tilning leksik taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar.
5. Amaliy tilshunoslik masalalari, kompyuter lingvistikasi. Neyrolingvistika.
6. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va dolzarb muammolari.
7. Pragmatika, lingvokulturologiya. Kognitiv tilshunoslik,

- 8. Terminologiya, leksikografiya.
- 9. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.
- 10. O'zbekistonda til ilmining rivojlanishi.

## **V. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar. I semester.**

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Tilshunoslik masalalarini o'rganishda ichki integratsiya.
2. Tilshunoslik masalalarini o'rganishda tashqi integratsiya.
3. So'z manusini o'zlashtirishning psixolingvistik asoslari.
4. Tillarning tarixiy aloqadorligi.
5. So'zning semantik tahibili.
6. Tilning fonetik-fonologik, grammatik tizimi
7. Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar.
8. Genialogik tasnif asoslari.
9. Tilning morfologik tasnifi.
10. Internet saytlaridan ma'lumotlar yig'ish.
11. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari.
12. Tilshunoslik masalalarini o'rganishda fanlarning o'rni.
13. Tilshunoslik masalalarini o'rganishda tarixning ahamiyati.
14. Tilshunoslik masalalarini o'rganishda matematikaning o'rni.
15. Areal lingvistika masalalarini yoritishda geografiyaning o'rni.
16. O'tilgan mavzular bo'yicha konspekt tayyorlash.
17. Til va adabiyot integratsiyasi.
18. Til va estetika munosabati.
19. Tilshunoslik va etnolingvistika.
20. Tilshunoslik va meditsina.

## **VI. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar. VII semester.**

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Praga lingvistik maktabi ta'lomitida fonologiyaning o'rni.
2. Amerika deskriptiv lingvistikasi qarashlari.
3. O'rta asrlarda Sharq va Yevropa tilshunosligi.
4. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishi.
5. Yosh grammatiklarning yutuqlari va kamchiliklari.
6. Tilshunoslik fanining zamonaviy tahlil usullari.
7. Tilning tizim sifatidagi mohiyati.
8. Tilshunoslik fanining zamonaviy tahlil usullari.
9. Tilning tizim sifatidagi mohiyati.
10. Tilshunoslik va semiotika.
11. Sharq mutafakkirlarining til shakllanishiga oid qarashlari.
12. Pragmalingvistika.
13. Lingvokulturologiya.
14. Kognitiv tilshunoslik.

	<p>15. Psixolingvistika.</p> <p>16. Amaliy tilshunoslik masalalari. Kompyuter lingvistikasi.</p> <p>17. Neyrolingvistika.</p>
3	<p><b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tilning ijtimoiy tabiatni, ijtimoiy vazifalari, til va jamiyat munosabati, til va tafakkur munosabati, lison va nutq munosabati, asosiy lisoniy munosabatlar, til birliklari va nutq birliklarining o‘zaro mutanosibligi, tilning semiotik tabiatni, tilning ramzlar tizimi sifatidagi ta’rifi, til sathlari, lisoniy paradigma asoslari, lisoniy tasnif asoslari, tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi, dunyo tillari va tillar tasnifi, tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligi, tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan aloqadorligi, qadimgi asrlar tilshunosligi. O‘ta asrlar tilshunosligi, Yevropa uyg‘onish davridagi tilshunoslik haqida tasavvurga ega bo‘lishi;</li> <li>-tilshunoslik va ijtimoiy, tabiiy fanlar kesimida paydo bo‘lgan zamонвиy integratsion fanlarni, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nazariyasi va metodlari, tilning ijtimoiy vazifalari, struktur tilshunoslik nazariyalari va metodlarini bilishi va ulardan foydalanishi;</li> <li>-tillarning tipologik tasnifini faktik material asosida yoritish, til tiplarining asosiy belgilarini farqlash, morfologik tasnifni agglyutinativ va flektiv tillar misolida tahlil qilish, morfologik shakllarning xilma-xilligi, tillarning morfologik tipologiyasini tahlil qilish, geneologik tasnifni til oilalari va til guruhlari asosida izohlash, agglyutinativ tillar, flektiv tillar, qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar o‘rtasidagi munosabatni yoritish, lisoniy va nutqiy birliklarning o‘zaro munosabatini tahlil qilish, tilni umumiylashtirish, nutqni xususiy psixofiziologik jarayon sifatida asoslash, til, tafakkur va nutq munosabatini integrativ yondashuv asosida izohlash, tilshunoslik nazariyasi masalalari haqida mustaqil fikr yurita olish, diaxron tadqiqot metodlaridan foydalanish, sinxron tadqiqot metodlarini qo‘llay bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;</li> <li>-tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligini integratsiya asosida tahlil qilish, leksik-semantik hodisalarini anglash kompetensiyasiga ega bo‘lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-ma‘ruzalar;</li> <li>-amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;</li> <li>-interfaol keys-stadilar;</li> <li>-blits-so‘rov;</li> <li>-guruhlarda ishlash;</li> <li>-taqdimotlarni qilish;</li> <li>-jamoa bo‘lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalari.</li> </ul>
5	<p><b>VII Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Talabalarning bilimini baholash va kreditlarni to‘plash jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta‘lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagagi 19-2018-sodan buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom talablari</p>

asosida belgilanadi.

### 1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

**Oraliq nazorat:** o'tilgan mavzular asosida og'zaki shaklda o'tkaziladi. Yakuniy nazorat: semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma shaklda o'tkaziladi.

**Izoh:** Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi. Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlarini tuyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

### 2. Talabalarning bilimini baholash mezonlari:

-talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda 5 (a'llo) baho;

-talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi Kursning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda 4 (yaxshi) baho;

-talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda 3 (qoniqarli) baho;

-talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

6.

### Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov L. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Yo'ldoshev I. va b. Mutaxassislikka (tilshunoslikka) kirish. -Toshkent: Sanoat Nur Fayz, 2020. 320 b.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyası. -Toshkent:Sanoat Nur Fayz, 2020.- 256 b.

### Qo'shimcha adabiyotlar

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаронов демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюқ келажагимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
- В. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манбаатларими - юрт тараккиёти ва халк фарононлигининг гарови. Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон

- Республикасини янада ривожлантириш бүйича Ҳаракатлар стратегияси тұғрисидаги Фармони ("Халқ сүзи". 2017 йил, 8 феваль).
10. ӽазбекистон Республикасы Президенттіннинг "Олий таълим тизимини yanada rivojlantirish chora tadbillari tug'ish karori ("Xalq So'zi, 2017 yil, 21 aprel).
11. Abduaazizov A., Sheremetova A. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 2004 yil.
12. Bushuy A.M., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. -Toshkent: Fan, 2007.
13. Borbala Rixter. Nazariy va amaliy tilshunoslikning ilk qadamlari. Budapesht, 2006 yil.
14. Dadaboyev H. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. - Toshkent, 2004.
15. Lingvistik ensiklopedik lug'at M. 1990
16. Nemchevo V.N. Balandlik. Universitetlar uchun ta'lif. M.-Дрофа, 2008-703.
17. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik ildizlari va yo'nalishlari. Ayon 2006
18. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyani-Toshkent: Fan, 2008
19. Nurmonov A. Linvistik tadqiq metodologiyasi va metodlari. -Toshkent, 2011
20. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. -Toshkent, 2007.
21. Piter T. Daniels (2001) Tilshunoslik qo'ilanmasida yozuv va til. Arnoff tomonidan tahrirlangan, M., Rees-Miller, 1. P.66
22. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish-Toshkent, 2007.
23. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlari lug'at. -Toshkent, 2002 yil,
24. Dadaboyev H., Xolmuradova M. Tilshunoslik nazariyasi. O'quv-uslubiy majmua-Toshkent, 2020.
25. Komilova G. O'zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili Monografiya-Toshkent: Bookmany print, 2023.

#### **Elektron manbalar**

- <http://www.ziyonet> <http://www.thinsan.com>
- <http://www.literature.uz>
- <http://www.genhis philol.ru>.
- <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
- <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.
- [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
- [www.genhisphilol.ru](http://www.genhisphilol.ru).
- <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
- <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.

**Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasining 2024 28-yil “  ” - 08 dagi 1-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

O‘quv dastur Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti Kengashning 2024-yil “29” 08 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Termiz davlat universiteti Kengashining 2024-yil “30” 06 dagi 1-sonli qarori bilan ma’qullangan.

**Fan/modul uchun mas’ul:**

**Amonturdiyev N.R.** – TerDU, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**Jo‘rayev Nabi Narziyevich** – Termiz davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

**Taqrizchi:**

**Sh.Maxmaraimova** – Termiz davlat universiteti, “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori, professor.